

QALAMTASVIRDA PERSPEKTIVANING AHAMIYATI

M.T.Yunusaliyev

Farg'ona davlat universiteti san'atshunoslik fakul'teti «Tasviriy san'at» kafedrası
o'qituvchisi

S.B.Sulaymonova

Farg'ona davlat universiteti san'atshunoslik fakul'teti «Tasviriy san'at» kafedrası
o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 1-kurs talabalarning chizmatasvir fani amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida berilgan geometric jismlarni tasvirlash topshiriqlarni bajarishda muammoli vaziyat yechimlari tahlili.

Kalit so'zlar: *Ufq chizig'i, perspektiv qisqarish, konstruktsiya, geometrik shakl, kub, konus, fazoviylik, sinch, tuzilish.*

ВАЖНОСТЬ ПЕРСПЕКТИВЫ В РИСОВАНИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализ решений проблемных ситуаций при выполнении заданий по изображению геометрических тел, данных на практических и самостоятельных занятиях студентов I курса по рисованию.

Ключевые слова: *Линия горизонта, перспективная редукция, построение, геометрическая форма, куб, конус, пространственность, масштаб, структура.*


THE IMPORTANCE OF PERSPECTIVE IN DRAWING

ABSTRACT

In this article, the analysis of solutions to problem situations when performing tasks on the image of geometric bodies, data on practical and independent classes of 1st year students in drawing.


Key words: *Horizon line, perspective reduction, construction, geometric shape, cube, cone, spatiality, scale, structure*

Buyumlarning fazoviy holatini to'g'ri tasvirlash uchun, perspektiva qonunlariga rioya qilinishi shart. Mashhur rassomning ijodi shundan dalolat beradiki, borliqni haqqoniy tasvirlash uchun tasviriy san'at qonun-qoidalariga rioya qilish g'oyat muhim. Leonardo da Vinchi o'zining «Rangtasvir qonu-niyatlari» nomli asarida shunday degan edi: «O'quvchi, avvalambor, perspektiva




1-rasm.

konstruktiv tuzilishini hamda ularning turli vaziyatlardagi perspektiv qisqarishlarini to'g'ri tasvirlash talabidan tinmay amaliy mashqlar bajarishni talab etadi [1,2,3].



2-rasm.



Boshlang'ich kurs dasturlarida gipsdan ishlangan turli geometrik shakllarni o'ziga qarab tasvirlash vazifalari ko'rsatilgan. Bunda talabalar kub, shar, prizma, konus, silindr, piramida, gips ko'za, turli naqsh va me'morlik bo'laklari va hokazolarni o'ziga qarab

tasvirlaydilar. Ushbu mashg'ulotlarning asosiy maqsadi – talabalarga kompozitsiya, chiziqli konstruktiv tuzilish, nisbatlar, perspektiva qonunlarini o'rgatish hamda ularda chizish malakasini shakllantirishdan iboratdir. Turli o'rta maxsus kolledjlaridan talabalikka qabul qilingan yoshlarning aksariyati ushbu osongina bajarish mumkin deb o'ylaydilar. Ular u yoki bu vazifani bajarishda qo'yiladigan talablarni tushungandek bo'lsalar-da, yetarli malaka va ko'nikmaga ega bo'lmagani hamda ushbu vazifani ishlashda asos hisoblangan qonun-qoidalarni bilmsligi oqibatida, qiyinchilikka uchraydilar. Masalan, ufq chizig'idan pastda joylashgan kub shaklini tasvirlash vazifasini olaylik. 2-a,b rasmda talaba kubni 3- rasm. tasvirlashda perspektiva qonunida

va chiziqli konstruktiv qurilish asoslarida xatoga yo'l qo'yan. Xuddi shu vazifaning boshqa nuqtadan to'g'ri bajarilgan namunasi quyidagi 2-b rasmda berilgan. Bunda talaba tasvirlashning barcha qonunlariga asoslangan, kubning perspektiv qisqarishini va uning konstruktiv tuzilishini sinch usulida to'g'ri bajargan. 2-a,b rasmlar. Geometrik shakllarning rasmini chizishda ularning buyum tekisligida joylashgan asoslarini chiziqli perspektiva qonuniga asosan bajarish muhim. Buning uchun chizuvchi buyurlarning perspektiv qisqarish qonunlari bilan bir qatorda ufq chizig'ini to'g'ri aniqlashi hamda uning yordamida turli shakllarning buyum tekisligida o'zaro joylashgan holatlarini haqqoniy tasvirlashi mumkin.

Ma'lumki, har bir buyum, u qanday shaklga ega bo'lishidan qat'iy nazar, perspektiva qonunlariga asosan qisqarishi mumkin. Lekin ko'p hollarda talabalar bu nazariyaga e'tibor bermaydilar. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talaba aylana shaklli buyumlarni tasvirlashda, uning fazoviy holatini to'g'ri topa olmaydi va buyumning perspektivaga asosan qisqarishida qo'pol xatoga yo'l qo'yadi. 3-a,b rasmda ufq chizig'idan yuqorida joylashgan oddiy ko'zani tasvirlashda talaba yo'l qo'yan xato-kamchiliklar va shu vazifaning yuqorida bayon etilgan qonunlar asosida to'g'ri bajarilgan namunasi ko'rsatilgan. Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, talaba ko'zaning aylana sirtlarining asosi, ekvatori, bo'yini, og'zi ufq chizig'iga asosan perspektiv qisqarishini to'g'ri tasvirlay olmagan.

Natijada ko'zaning buyum tekisligida joylashuvi soxta chiqqan, fazoviy holati hamda hajmi aniqlanmagan 3-rasmda ko'zaning chiziqli konstruktiv tuzilishi, ko'zadagi tuzilishi, ko'zadagi aylana sirtlarining ufq chizig'idan pastga, buyum tekisligiga tomon uzoqlashgan sari ularning perspektiv holati asta-sekin qisqara borishi natijasida ko'zaning tekislikdagi fazoviy holati va hajmi aniq tasvirlangan.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinadiki, yoshlar u yoki bu buyumni tasvirlashdan avval, uning shakli qanday – sodda yoki murakkab tuzilgan bo'lishidan

qat'iy nazar, buyumni sinchiklab kuzatishlari va uning ko`rinar-ko`rinmas tomonlarini ham tasavvur qilishlari shart. Ko`pincha usta rassom va muallimlar buyumni kuzatib o`rganish natijasida uning kompozitsion jihatdan to`g`ri joylashgan, chiziqli konstruktiv qurilgan holatini xayolan tasavvur etishni, so`ngra shu kuzatish orqali ishga kirishishni maslahat beradilar. Bunday usul chizuvchining fazoviy tasavvurini shakllantiribgina qolmay, buyum tasviri to`laqonli bo`lishiga ham katta yordam beradi.

Yoshlar tasviriy san`atning perspektiva qonunlarini o`qish davrining hamma bosqichlarida qo`llay bilishlari zarur. Ular bu qonunlarni turli oddiy buyumlarni chizganda ham, tabiatning eng murakkab mahsuli bo`lgan inson qomatining turli holatlardagi ko`rinishini tasviriashda ham qo`llashlari lozim.

Inson portreti yoki tanasini tasvirlashda talaba dastlabki kurslarda geometrik shakllarni chizish davrida olgan bilim va malakasiga asoslanishi muhim. Chunki tabiatdagi barcha narsalarning asosida geometrik shakllar yotadi.

REFERENCES

1. Boymetov B. Qalamtasvir. T.: "MUSIQA" nashriyoti, 2006. – 215 b.
2. Valiyev A.N. Perspektiva. T.: "Voris nashriyot", 2009. – 192 b.
3. Рахмонов И.Т., Перспектива. Т.: "Ўқитувчи" нашриёти, 1973. – 160 б.
4. Yunusaliyev, M. T. (2022). DEKORATIV KOMPOZITSIYALARDA KONTRAST VA NYUANS'LARNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 5-8.
5. Barchinoy, K., Sevarakhon, S., & Mukhammadkodir, Y. (2021). EFFECTIVE METHODS OF TEACHING FINE ARTS AND DRAWING AT SCHOOL.
6. Qurbonova, B., & Yuldashev, I. (2022). MOVAROUNNAHRDAGI MADANIY HAYOTDA TASVIRIY SAN'AT TURLARIGA BO`LGAN E'TIBOR. *Research Focus*, 1(2), 248-253.
7. Mamirjonovich, M. N., Jumadillayevich, S. R., & Anvarovich, M. A. (2021). The Role Of Historical Monuments In The Development Of Central Asian Architecture. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(02), 1-5.
8. Zulfiya, B., Rakhmonali, S., & Murodjon, K. (2021). A BRIEF HISTORY OF THE DEVELOPMENT AND TEACHING OF DRAWING SCIENCE IN UZBEKISTAN.
9. Zulfiya, B., & Raxmonali, S. (2022). SAN'ATNING IJTIMOYIY HAYOTNING MURAKKAB MUNOSABATLARI BILAN ALOQADORLIGI. *Research Focus*, 1(2), 296-300.

10. Курбанова, Б. М., Юнусалиев, М., & Арзиева, Н. (2022). ОСОБЕННОСТИ ТЕХНИКИ: АКВАРЕЛЬ, МАСЛО И ГУАШЬ. *Research Focus*, 1(2), 319-325.
11. Курбанова, Б., Ахмедова, Н., & Юлдашев, И. (2022). РАНГТАСВИР ТЕХНИКАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ. *Research Focus*, 1(2), 231-237.
12. Boboyeva, Z. A., & Mo'Minova, D. B. Q. (2022). TALABALARNING KREATIVLIK QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 221-233.
13. Mirzahamdammovna, K. B., Erkinovna, A. N., & Jumadillaevich, S. R. (2021). Use of Innovative Educational Technologies in Fine ARTS Classes of Higher Education Institutions. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(4), 25-27.
14. O'Rinov, M. X. O. G. (2022). CHIZMACHILIK FANI DARSLARIDA UYG'UNLASHGAN TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 167-173.
15. O'Rinov, M. X. O. G. (2022). TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING CHIZMACHILIK FANIDAGI O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 110-114.
16. Sadikovna, S. G., Kurbonova, B., Akhmedova, N., & Sulaymanova, S. (2020). FUNDAMENTALS OF PROFESSIONALISM DEVELOPMENT ON THE EXAMPLE OF PRACTICAL EXERCISES ON FORMING THE SKILLS AND SKILLS OF FUTURE TEACHERS. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(6), 8894-8903.
17. Бобоева, З. (2022). ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ САЊАТНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 51-55.
18. Barchinoy, K., Sevarakhon, S., & Mukhammadkodir, Y. (2021). EFFECTIVE METHODS OF TEACHING FINE ARTS AND DRAWING AT SCHOOL
19. Ахмедова, Н. Э. (2022). МЎЪЖАЗ САЊАТНИНГ БЕТАКРОР НАФОСАТ ОЛАМИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 125-130.
20. Ахмедова, Н. Э. (2022). БУГУНГИ ЁШ АВЛОДНИ АХЛОҚИЙ, КОГНИТИВ ВА ЭСТЕТИК ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА КИТОБОТ

САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 204-208.

21. Zulfiya, B., & Raxmonali, S. (2022). SAN'ATNING IJTIMOIIY HAYOTNING MURAKKAB MUNOSABATLARI BILAN ALOQADORLIGI. *Research Focus*, 1(2), 296-300.

22. Сулайманова, С., Омонов, Д., & Аъзамжонов, А. (2022). Алишер Навоий асарларидан бадий олий таълим муассасаларида тасвирий санъатни ўқитиш жараёнида фойдаланишнинг зарурияти. *Research Focus*, 1(2), 272-277.

23. Sulaymanova, S. B. Q. (2022). BADIY OLIY TA'LIM MUASSASALARDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHGA BO'LGAN EHTIYOJNING OSHISHI VA UNING BUGUNGI HOLATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 89-96.

24. A'Zamjonov, A. A. Z. (2022). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHGA INNOVATSION YONDASHUV YO'LLARI MAVZUSI BO'YICHA AMALIY ISHLANMA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 56-60.

25. A'zamjonov, A., & Hamdamov, K. H. (2022). TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARI MAZMUNINING DAVLAT TA'LIM STANDARTLARI BILAN BOG'LIQLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 71-77.